



Yosh astronom talabalarining ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi

Joriy yilning 11-14-aprel kunlari O'zR FA Astronomiya instituti tomonidan respublika oliy o'quv yurtlari astronomiya yo'nalishi talabalari va yosh olimlari uchun "Mirzo Ulug'bek ilmiy merosining zamonaviy astronomiya va ta'limi ravnaqidagi roli"ga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.


Anjumanda Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Qarshi Davlat Universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Chirchiq davlat pedagogika instituti, Termiz davlat universiteti, O'zbekiston milliy universiteti hamda Toshkent davlat pedagogika universitetlari talabalari va magistrantlari, o'qituvchilar hamda astronomiya faniga qiziquvchilar qatnashdi.





Anjuman davomida O'zR FA Astronomiya institutining yetakchi mutaxassis olimlari va yosh tadqiqotchilar talabalarga astronomiya, nazariy va amaliy astrofizika bo'yicha ma'ruzalar o'qishdilar. Bundan tashqari, ishtirokchilar Maydanak va Samarqand observatoriyalari, u yerdagi kuzatuvchilar bilan onlayn tarzda tanishish imkoniga ega bo'lishdi.

Массив юлдузнинг ўлими – Нейтрон юлдузининг туғилиши



Нейтрон Юлдузи Биографияси: Қисқичбақа Пулсари

- SN 1054 дастлаб янги "меҳмон юлдуз" сифатида осмонда 1054 йилнинг 4 июлида кузатилади.
- Бу ҳодиса бир қанча Хитой ва Япония манбаларида қайд этилади.
- Бу ҳодисани Нью Мексикода жойлашган Чако Канённинг Анасази аҳолиси ҳам кузатади.
- Қисқичбақа туманлиги ва Қисқичбақа пулсари ушбу Супернованинг қолдиқлари ҳисобланади.



Shuni aytib o'tish joizki, anjumanda chet elda o'z ilmiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotgan yurtdoshlarimiz ma'ruzalari ham tinglandi.

Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga yetakchi soha mutaxassislaridan javoblar olishdi.